

HUDUDLAR BO‘YICHA MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHGA ILMIY-USLUBIY YONDASHUVLAR

Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasida
katta o‘qituvchisi, PhD.

Annotatsiya

Ushbu maqolada hududlar bo‘yicha moliyaviy inklyuziya darajasini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda moliyaviy inklyuziya indeksini hisoblashning zamonaviy metodologik yondashuvlari, xususan, ko‘p o‘lchamli indeks tuzish, asosiy komponentlar tahlili (PCA) va raqamli moliyaviy xizmatlar integratsiyasi kabi usullar chuqur o‘rganilgan. Maqolada jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalarning hududiy kontekstda qo‘llanilishi imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, moliyaviy inklyuziya darajasini baholashda foydalanish, kirish imkoniyati va sifat o‘lchovlarini birlashtirgan kompleks yondashuv samarali natijalar beradi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy inklyuziya, indeks metodologiyasi, hududiy tahlil, asosiy komponentlar tahlili, raqamli moliyaviy xizmatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar

Аннотация

В данной статье проанализированы научно-методологические основы оценки уровня финансовой инклюзии по регионам. В исследовании подробно рассмотрены современные методологические подходы к расчёту индекса финансовой инклюзии, в частности, построение многомерного индекса, метод главных компонент (PCA) и интеграция цифровых финансовых услуг. В статье исследуются возможности применения методологий, разработанных Всемирным банком, Международным валютным фондом и другими международными организациями, в региональном контексте. Результаты анализа показывают, что комплексный подход, объединяющий измерения доступа, использования и качества, даёт эффективные результаты при оценке уровня финансовой инклюзии.

Ключевые слова: финансовая инклюзия, методология индекса, региональный анализ, метод главных компонент, цифровые финансовые услуги, развивающиеся страны.

Abstract

This article analyzes the scientific and methodological foundations for assessing the level of financial inclusion across regions. The study explores modern methodological approaches to calculating the financial inclusion index, including the construction of a multidimensional index, principal component analysis (PCA), and the integration of digital financial services. The article examines the applicability of methodologies developed by the World Bank, the International Monetary Fund, and other international organizations within regional contexts. The analysis reveals that a comprehensive approach combining access, usage, and quality dimensions provides effective results in evaluating the level of financial inclusion.

Keywords: financial inclusion, index methodology, regional analysis, principal component analysis, digital financial services, developing countries.

KIRISH

Moliyaviy inklyuziya — jismoniy va yuridik shaxslarning rasmiy moliyaviy xizmatlarga teng va qulay kirish imkoniyatiga ega bo‘lishi — so‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiy rivojlanish siyosatining markaziy elementlaridan biriga aylangan. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda kattalar orasida moliyaviy hisob egalarning ulushi 2021-yilga nisbatan 16 foiz bandga oshib, 40 foizni tashkil etgan [1]. Ushbu o‘shish tendensiyasi moliyaviy texnologiyalar rivojlanishi va raqamli to‘lov tizimlarining kengayishi bilan bevosita bog‘liq.

Moliyaviy inklyuziyaning mamlakat ichidagi hududiy tafovutlarni o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Turli mintaqalar o‘rtasidagi moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatidagi farqlar iqtisodiy tengsizlikni chuqurlashtirishga, daromadlar bo‘linishidagi nomutanosiblikni kuchaytirishga va ijtimoiy rivojlanish sur‘atlarini pasaytirishga olib kelishi mumkin [2]. Shu bois, hududlar kesimida moliyaviy inklyuziya darajasini aniq baholash va monitoring qilish metodologiyasini ishlab chiqish davlat siyosatini shakllantirish uchun zarur axborot bazasi yaratilishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi moliyaviy inklyuziya darajasini hududiy kesimda baholashning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini tizimlashtirish va ularning rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida qo‘llanilishi imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida moliyaviy inklyuziya indeksini hisoblashning zamonaviy metodologiyalari tanlangan, predmeti esa ushbu metodologiyalarning hududiy tahlilda qo‘llanilishi mexanizmlari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy inklyuziya konsepsiyasining nazariy asoslari XX asr oxiri — XXI asr boshlarida shakllangan bo‘lib, dastlab moliyaviy eksklyuziya (chetlatish) muammosini o‘rganish kontekstida rivojlangan. Claessens tadqiqotlarida moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatini iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri sifatida baholab, moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni nazariy jihatdan asoslagan [3]. Beck va hamkasblarining tadqiqotlarda bank xizmatlarining geografik qamrovi va foydalanish darajasi o‘rtasidagi farqlarni empirik jihatdan isbotlagan [4].

Moliyaviy inklyuziya indeksini hisoblash metodologiyasining shakllanishida Sarma ishlari alohida o‘rin tutadi. Sarma tomonidan taklif etilgan ko‘p o‘lchamli indeks BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan inson rivojlanish indeksini hisoblashda qo‘llaniladigan metodologiyaga asoslangan [5]. Ushbu yondashuv moliyaviy inklyuziyaning uchta asosiy o‘lchovi — penetratsiya (bank hisoblariga egalik), mavjudlik (moliyaviy infratuzilma) va foydalanish (depozit va kredit operatsiyalari) — ni birlashtirib, 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda yagona ko‘rsatkich hosil qiladi.

Cámara va Tuesta tomonidan taklif etilgan ikki bosqichli asosiy komponentlar tahlili (PCA) metodologiyasi Sarma yondashuvini yanada takomillashtirgan [6]. Ushbu parametrik usul vazn koeffitsiyentlarini subyektiv tanlash muammosini hal qiladi va ma'lumotlarga asoslangan vazn taqsimotini ta'minlaydi. Metodologiyaning birinchi bosqichida moliyaviy inklyuziyaning har bir o'lchovi (kirish, foydalanish, to'siqlar) uchun alohida sub-indekslar hisoblanadi, ikkinchi bosqichda esa ushbu sub-indekslar yagona kompozit indeksga birlashtiriladi.

Demirgüç-Kunt va Klapper (2012) tomonidan ishlab chiqilgan Global Findex ma'lumotlar bazasi moliyaviy inklyuziyani o'lchashda talab tomoni ma'lumotlaridan foydalanishning metodologik asoslarini yaratgan [7]. Ushbu yondashuv individual darajadagi so'rovnoma ma'lumotlarini tahlil qilish orqali moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatidagi ijtimoiy-demografik farqlarni aniqlash imkonini beradi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda eng boy kvintilidagi kattalar eng kambag'al kvintilga nisbatan o'rtacha ikki barobar ko'proq moliyaviy hisobga ega [7].

Raqamli moliyaviy inklyuziya sohasidagi tadqiqotlar yangi metodologik yo'nalishni shakllantirgan. XVF (Xalqaro Valyuta Fondi) ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan raqamli moliyaviy inklyuziya indeksi an'anaviy moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlarini mobil to'lovlar va raqamli moliyaviy xizmatlar bilan to'ldirgan [8]. Tadqiqot natijalari fintex innovatsiyalarining moliyaviy inklyuziyaga ijobiy ta'sirini, ayniqsa, Afrika va Osiyo-Tinch okeani mintaqalarida yuqori o'sish sur'atlarini qayd etgan.

Hududiy moliyaviy inklyuziya tadqiqotlarida Ambarkhane va hamkasblarining Hindiston shtatlari bo'yicha olib borgan ishlari metodologik jihatdan qimmatli hissa qo'shgan [9]. Tadqiqotchilar ikki bosqichli PCA metodologiyasini qo'llab, davlat miqyosida moliyaviy inklyuziya darajasidagi tafovutlarni aniqlagan va siyosat tavsiyalarini ishlab chiqqan. Janubiy Afrika hududlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar esa moliyaviy inklyuziya va hududiy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik jihatdan tasdiqlagan [10].

Markaziy Osiyo mintaqasida moliyaviy inklyuziya sohasidagi tadqiqotlar nisbatan kam sonli bo'lib, asosan xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan olib borilgan. Osiyo Taraqqiyot Banki (2024) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda rasmiy moliyaviy muassasalarda hisobga ega bo'lgan kattalar ulushi 44 foizni tashkil etib, Markaziy Osiyo o'rtacha ko'rsatkichi (58 foiz) dan sezilarli darajada past [11]. Bu holat mintaqadagi moliyaviy inklyuziya darajasini baholash va oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy inklyuziya indeksini hisoblashda yagona universal metodologiya mavjud emas. Turli tadqiqotchilar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llaniladigan yondashuvlar o'lchovlar soni, vazn koeffitsiyentlarini aniqlash usullari va ma'lumotlar manbalari bo'yicha farqlanadi. Biroq, aksariyat zamonaviy tadqiqotlar ko'p o'lchamli yondashuvni qo'llash, parametrik usullar orqali vazn koeffitsiyentlarini hisoblash va raqamli moliyaviy xizmatlarni inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda moliyaviy inklyuziya darajasini hududiy kesimda baholash metodologiyasi qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Tahlil uchun xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan uchta asosiy metodologik yondashuv tanlangan: Sarma tomonidan taklif etilgan masofa usuli (distance method), Cámara va Tuestaning ikki bosqichli asosiy komponentlar tahlili (PCA) va XVF (2021) ning raqamli moliyaviy inklyuziya indeksi [5], [6], [8].

Masofa usuli (Sarma metodologiyasi)

Sarma metodologiyasida moliyaviy inklyuziya indeksi (IFI) har bir o'lchov bo'yicha normallashtirilgan qiymatlar asosida hisoblanadi. Normallashtirish formulasi quyidagicha:

$$d_i = w_i \times (A_i - m_i) / (M_i - m_i)$$

bu yerda:

A_i — i-o'lchovning haqiqiy qiymati;

m_i — i-o'lchovning minimal qiymati;

M_i — i-o'lchovning maksimal qiymati;

w_i — vazn koeffitsiyenti. Normallashtirish natijasida har bir o'lchov 0 dan 1 gacha oraliqda qiymat oladi [5]. Yakuniy IFI qiymati barcha o'lchovlarning geometrik o'rtachasi sifatida hisoblanadi.

Ikki bosqichli PCA metodologiyasi

Ikki bosqichli PCA metodologiyasi subyektiv vazn tanlash muammosini hal qiladi. Birinchi bosqichda har bir o'lchov (kirish, foydalanish, to'siqlar) bo'yicha indikatorlar PCA orqali sub-indekslarga aylantiriladi. Ikkinchi bosqichda hosil bo'lgan sub-indekslar yagona kompozit indeksga birlashtiriladi [6]. Ushbu usul ma'lumotlarning ichki strukturasi asoslangan vazn koeffitsiyentlarini avtomatik ravishda aniqlaydi va natijalardagi subyektivlikni minimallashtiradi.

PCA metodologiyasini qo'llash uchun ma'lumotlar to'plamining muvofiqligini baholashda Kaiser-Meyer-Olkin (KMO) testi va Bartlett testi qo'llaniladi. KMO koeffitsientining 0.6 dan yuqori qiymati va Bartlett testi statistik ahamiyatligi ma'lumotlar to'plamining PCA uchun muvofiqligini tasdiqlaydi [12].

Raqamli moliyaviy inklyuziya indeksi

Raqamli moliyaviy inklyuziya indeksi an'anaviy ko'rsatkichlarni raqamli moliyaviy xizmatlar indikatorlari bilan to'ldiradi. Ushbu metodologiyada mobil pul o'tkazmalari, raqamli to'lovlar va onlayn banking ko'rsatkichlari alohida o'lchov sifatida kiritiladi [8]. Kompozit indeks an'anaviy va raqamli komponentlarni quyidagi formula asosida birlashtiradi:

$$CFI = \alpha \times TFI + \beta \times DFI$$

bu yerda: CFI — keng qamrovli moliyaviy inklyuziya indeksi; TFI — an'anaviy moliyaviy inklyuziya indeksi; DFI — raqamli moliyaviy inklyuziya indeksi; α , β — vazn koeffitsiyentlari ($\alpha + \beta = 1$) qo'llaniladi [8].

Hududiy tahlil uchun indikatorlar tizimi

Hududlar bo'yicha moliyaviy inklyuziya darajasini baholashda quyidagi indikatorlar tizimi qo'llaniladi (1-jadval asosida). Kirish o'lchovi bo'yicha: 1000 km² ga to'g'ri keladigan bank filiallari soni, 100 000 aholi uchun bankomat soni, moliyaviy xizmat ko'rsatish nuqtalari tarqalishi. Foydalanish o'lchovi bo'yicha: 1000 kattalar uchun bank hisobvaraqa soni, depozit va kredit hisobvaraqlari nisbati, raqamli to'lovlar hajmi. Sifat o'lchovi bo'yicha: moliyaviy mahsulotlar diversifikatsiyasi, iste'molchi huquqlarini himoya qilish ko'rsatkichlari, moliyaviy savodxonlik darajasi [13].

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy inklyuziya indeksini hisoblash metodologiyalarining qiyosiy tahlili turli yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har bir metodologiya o'ziga xos qo'llanilish sohasiga ega va ma'lum sharoitlarda optimal natijalar beradi.

Sarma metodologiyasi soddaligi va tushunarli talqin imkoniyati bilan ajralib turadi. Ushbu usul moliyaviy inklyuziya darajasini 0 dan 1 gacha oraliqda baholab, natijalarni quyidagi toifalarga ajratadi: yuqori moliyaviy inklyuziya (0.6 dan yuqori), o'rta moliyaviy inklyuziya (0.4–0.6 oralig'ida), past moliyaviy inklyuziya (0.4 dan past) [5]. Biroq, ushbu metodologiyaning asosiy kamchiligi vazn koeffitsiyentlarini subyektiv tanlashda namoyon bo'ladi.

Ikki bosqichli PCA metodologiyasi statistik jihatdan aniqroq natijalar beradi va vazn koeffitsiyentlarini ma'lumotlarga asoslangan holda aniqlaydi [6]. 137 mamlakatni qamrab olgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu metodologiya boshqa indekslar (Honohan; Sarma; Amidzic va boshqalar) bilan yuqori korrelyatsiya koeffitsiyentlariga (0.79–0.84) ega [6]. Biroq, PCA metodologiyasi murakkab matematik apparatni talab qiladi va natijalardagi o'zgarishlarni interpretatsiya qilish qiyinroq.

1-jadval.

Moliyaviy inklyuziya indeksini hisoblash metodologiyalarining qiyosiy tahlili¹

Mezon	Sarma metodologiyasi	Ikki bosqichli PCA	Raqamli MI indeksi
Vazn aniqlash usuli	Teng vazn / subyektiv	Ma'lumotlarga asoslangan	Kombinatsiyalangan
O'lchovlar soni	3 (penetratsiya, mavjudlik, foydalanish)	3 (kirish, foydalanish, to'siqlar)	4+ (an'anaviy + raqamli)
Matematik murakkablik	Past	Yuqori	O'rta
Amaliy qo'llanilishi	Yuqori	O'rta	Yuqori
Raqamlashganlik holati	Qisman	Qisman	To'liq integratsiya

Global moliyaviy inklyuziya indeksi (Principal va Cebr) hukumat, moliyaviy tizim va ish beruvchilar qo'llab-quvvatlashi bo'yicha uchta ustunga asoslangan metodologiyani qo'llaydi [14]. Ushbu yondashuv 42 ta bozorni qamrab olib, mutlaq

¹ Manba: Muallif tomonidan tuzilgan [5], [6], [8]

ballar (0–100 shkala) va nisbiy reytinglar orqali baholash imkonini beradi. 2024-yilda global miqyosda moliyaviy inklyuziya darajasi ikkinchi yil ketma-ket yaxshilangan, bunda Lotin Amerikasi mintaqasi eng yuqori o‘‘sish sur‘atlarini namoyish etgan [14].

2-jadval.

Hududiy moliyaviy inklyuziya indikatorlari tizimi¹

O‘lchov	Indikatorlar	Ma‘lumot manbai
Kirish (Access)	Bank filiallari / 1000 km ² ; Bankomatlar / 100 000 aholi; MFI nuqtalari soni	XVF FAS; Markaziy bank; Statistika qo‘mitasi
Foydalanish (Usage)	Hisobvaraqlar / 1000 aholi; Depozit-kredit nisbati; Raqamli to‘lovlar ulushi	Global Findex; Markaziy bank hisoboti
Sifat (Quality)	Mahsulot diversifikatsiyasi; Xizmat narxi; Iste‘molchi himoyasi indeksi	AFI; Jahon banki; So‘rovnoma natijalari
Raqamli (Digital)	Mobil banking foydalanuvchilari; Onlayn to‘lovlar hajmi; Fintex xizmatlar qamrovi	GSMA; Markaziy bank; Telekommunikatsiya regulyatori

Hududiy moliyaviy inklyuziya tahlilida Xitoy tajribasi alohida qiziqish uyg‘otadi. 31 viloyatni qamrab olgan tadqiqot raqamli moliyaviy inklyuziya va mintaqaviy iqtisodiy o‘‘sish o‘rtasidagi nochiziqli bog‘liqlikni aniqlagan [15]. Panel chegara modeli (PTAR va PSTAR) natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o‘‘sishga ta‘siri moliyaviy inklyuziya darajasi oshgan sari kuchayadi. Qirg‘oq viloyatlari rivojlangan infratuzilma va yuqori raqamli savodxonlik tufayli ichki hududlarga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega.

Markaziy Osiyo mintaqasida moliyaviy inklyuziya rivojlanishi dinamikasi ijobiy tendentsiyalarni namoyish etmoqda. O‘zbekiston Markaziy banki Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo moliyaviy inklyuziya siyosati tashabbusi (ECAPI) raisligini qabul qilib, mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga e‘tibor qaratmoqda [16]. 2020-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi tijorat banklari tarmog‘i 30 ta bosh ofis, 850 ta filial, 595 ta mini-filial va 902 ta 24/7 o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish nuqtalaridan iborat [17]. Lekin zamonaviy raqamlashtirish sharoitida banklar 850 ta filialdan 376 ta gacha qisqartirildi [26].

Raqamli moliyaviy inklyuziya sohasida sezilarli yutuqlar qayd etilgan. O‘zbekistondagi masofaviy bank xizmatlari (RBS) mobil tizimlaridan 9.5 milliondan ortiq jismoniy shaxslar foydalanmoqda [17]. HUMO milliy to‘lov tizimi Visa va MasterCard xalqaro to‘lov tizimlari bilan integratsiyalashgan, bu esa xalqaro kartalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirgan. Toshkent metropolitenida kontaktsiz to‘lov tizimi muvaffaqiyatli joriy etilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hududiy moliyaviy inklyuziya darajasini baholashda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: infratuzilmaning geografik taqsimlanishi, aholi zichligi va urbanizatsiya darajasi, raqamli texnologiyalar tarqalishi, moliyaviy savodxonlik darajasi. Janubiy Afrika hududlari bo‘yicha tadqiqot natijalari shuni tasdiqlagan: yuqori daromadli viloyatlar moliyaviy xizmatlarning yaxshiroq qamroviga ega, biroq moliyaviy inklyuziya darajasi viloyat YaIM ulushi va aholi sonidan qat‘i nazar oshirilishi mumkin [10].

¹ Manba: Muallif tomonidan tuzilgan [7], [8], [13]

Rivojlanayotgan mamlakatlarda fintex va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish muhim xulosalarga olib kelgan. 84 mamlakatni qamrab olgan tadqiqot shuni aniqlagan: fintex ning moliyaviy inklyuziyaga ta'siri moliyaviy vosita turiga qarab farqlanadi [18]. Rivojlangan mamlakatlarda bu ta'sir statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ijobiy va statistik ahamiyatli natijalar kuzatilgan. Bu xulosa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun fintex innovatsiyalarini rivojlantirish strategiyasining ahamiyatini tasdiqlaydi.

O'zbekiston hududlari bo'yicha moliyaviy inklyuziya indeksini hisoblash uchun zarur boshlang'ich ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan. Ma'lumotlar O'zbekiston Markaziy banki va O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yilgi rasmiy hisobotlaridan olingan.

3-jadval.

O'zbekiston hududlari bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlar (2025-yil)¹

T/r	Viloyat	Filiallar	Bankomatlar	Kreditlar (mlrd)	Depozitlar (mlrd)	Aholi (ming)	Maydon (km ²)
1	Toshkent shahri	99	1522	286734,0	287397,0	3112,8	435
2	Navoiy viloyati	16	342	18673,3	7145,1	1094,7	110800
3	Sirdaryo viloyati	14	216	17942,0	1803,6	930,8	4300
4	Buxoro viloyati	17	510	24977,9	10230,1	2077,0	39400
5	Xorazm viloyati	15	451	23907,2	10362,8	2032,4	6100
6	Qoraqalpog'iston R.	20	419	18999,2	6987,4	2029,7	166600
7	Jizzax viloyati	18	274	19287,0	3242,1	1537,6	20500
8	Toshkent viloyati	23	631	27996,9	7355,8	3108,5	15300
9	Farg'ona viloyati	36	814	31080,3	7269,0	4144,7	6800
10	Andijon viloyati	26	533	25545,7	7543,8	3461,0	4200
11	Samarqand viloyati	29	652	29224,0	11037,1	4297,5	16400
12	Namangan viloyati	24	424	20309,0	4064,6	3131,7	7400
13	Qashqadaryo viloyati	21	478	25831,5	7936,4	3639,3	28400
14	Surxondaryo viloyati	18	380	22345,7	5190,4	2945,5	20100

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha jami 376 ta bank filiali va 7646 ta bankomat faoliyat yuritmoqda. Bank filiallari soni bo'yicha Toshkent shahri (99 ta, 26,3%) birinchi o'rinda turadi. Bankomatlar bo'yicha ham Toshkent shahri yetakchi (1522 ta, 19,9%). Kredit va depozit operatsiyalari bo'yicha Toshkent shahri keskin ustunlikka ega – jami kreditlarning 48,4% va depozitlarning 76,1% poytaxtga to'g'ri keladi.

Har bir indikator uchun o'lcham indeksi (dimension index) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$d_i = A_i / M_i$$

bu yerda: d_i – i-indikator uchun normallashtirilgan qiymat (0 dan 1 gacha);

A_i – i-indikatorning haqiqiy qiymati;

M_i – i-indikator uchun etalon (maksimal) qiymatlar.

¹ Manba: O'zbekiston Markaziy banki, Statistika agentligi ma'lumotlari [26],[27],[28].

Normallashtirishda xalqaro etalon qiymatlari qo‘llanildi: D1 uchun 15,0 (OECD mamlakatlari o‘rtachasi); D2 uchun 60,0 (OECD mamlakatlari o‘rtachasi); D3 va D4 uchun 100,0 mln so‘m (O‘zbekiston sharoiti uchun optimal daraja sifatida qabul qilinadi).

Yakuniy moliyaviy inklyuziya indeksi Sarma [6] formulasi bo‘yicha hisoblanadi:

$$IFI = 1 - \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (1 - d_i)^2}{n}}$$

bu yerda:

n – indikatorlar soni (n=4);

d_i – i-indikator uchun normallashtirilgan qiymat.

Sub-indekslar quyidagicha hisoblanadi:

$$ACCESS = \frac{d_1 + d_2}{2};$$

$$USAGE = \frac{d_3 + d_4}{2};$$

Olingan IFI qiymatlari Sarma [6] toifalashtirish tizimiga muvofiq guruhlanadi: yuqori moliyaviy inklyuziya ($IFI \geq 0,6$); o‘rta moliyaviy inklyuziya ($0,3 \leq IFI < 0,6$); past moliyaviy inklyuziya ($IFI < 0,3$).

Hududlararo obyektiv taqqoslash uchun mutlaq ko‘rsatkichlar aholi soniga nisbatan qayta hisoblandi va benchmark qiymatlari asosida normallashtirildi. Natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval.

Nisbiy ko‘rsatkichlar va normallashtirilgan indikatorlar¹

T/r	Viloyat	D1	D2	D3	D4	d1	d2	d3	d4
1	Toshkent shahri	3,18	48,89	92,11	92,33	0,21	0,81	0,92	0,92
2	Navoiy viloyati	1,46	31,24	17,06	6,53	0,10	0,52	0,17	0,07
3	Sirdaryo viloyati	1,50	23,21	19,28	1,94	0,10	0,39	0,19	0,02
4	Buxoro viloyati	0,82	24,55	12,03	4,93	0,05	0,41	0,12	0,05
5	Xorazm viloyati	0,74	22,19	11,76	5,10	0,05	0,37	0,12	0,05
6	Qoraqalpog‘iston R.	0,99	20,64	9,36	3,44	0,07	0,34	0,09	0,03
7	Jizzax viloyati	1,17	17,82	12,54	2,11	0,08	0,30	0,13	0,02
8	Toshkent viloyati	0,74	20,30	9,01	2,37	0,05	0,34	0,09	0,02
9	Farg‘ona viloyati	0,87	19,64	7,50	1,75	0,06	0,33	0,07	0,02
10	Andijon viloyati	0,75	15,40	7,38	2,18	0,05	0,26	0,07	0,02
11	Samarqand viloyati	0,67	15,17	6,80	2,57	0,04	0,25	0,07	0,03
12	Namangan viloyati	0,77	13,54	6,48	1,30	0,05	0,23	0,06	0,01
13	Qashqadaryo viloyati	0,58	13,13	7,10	2,18	0,04	0,22	0,07	0,02
14	Surxondaryo viloyati	0,61	12,90	7,59	1,76	0,04	0,22	0,08	0,02

Izoh: D1 – filiallar/100 ming aholi; D2 – bankomatlar/100 ming aholi; D3 – kreditlar/aholi (mln so‘m); D4 – depozitlar/aholi (mln so‘m)

4-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahri barcha nisbiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha yetakchi mavqeni egallaydi. 100 000 aholiga to‘g‘ri keladigan bank filiallari soni (D1) Toshkent shahrida 3,18 ni tashkil etadi, bu respublika o‘rtachasidan (1,06) 3 baravar yuqori. Bankomatlar zichligi (D2) bo‘yicha ham Toshkent shahri (48,89) boshqa hududlardan sezilarli ustun – eng past ko‘rsatkich Surxondaryo viloyatida (12,90).

¹ Manba: Muallif hisob-kitoblari


Normallashtirilgan indikatorlar asosida hisoblangan moliyaviy inklyuziya indeksi (IFI) natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval.

O‘zbekiston hududlari bo‘yicha moliyaviy inklyuziya indeksi (2025)¹

T/r	Viloyat	ACCESS	USAGE	IFI	Toifa	Reyting
1	Toshkent shahri	0,51	0,92	0,59	O‘rta	1
2	Navoiy viloyati	0,31	0,12	0,19	Past	2
3	Sirdaryo viloyati	0,24	0,11	0,16	Past	3
4	Buxoro viloyati	0,23	0,08	0,15	Past	4
5	Xorazm viloyati	0,21	0,08	0,14	Past	5
6	Qoraqalpog‘iston R.	0,20	0,06	0,13	Past	6
7	Jizzax viloyati	0,19	0,07	0,12	Past	7
8	Toshkent viloyati	0,19	0,06	0,12	Past	8
9	Farg‘ona viloyati	0,19	0,05	0,11	Past	9
10	Andijon viloyati	0,15	0,05	0,10	Past	10
11	Samarqand viloyati	0,15	0,05	0,09	Past	11
12	Namangan viloyati	0,14	0,04	0,09	Past	12
13	Qashqadaryo viloyati	0,13	0,05	0,08	Past	13
14	Surxondaryo viloyati	0,13	0,05	0,08	Past	14

5-jadval natijalari shuni ko‘rsatadi, O‘zbekiston hududlari orasida moliyaviy inklyuziya darajasi bo‘yicha sezilarli farqlanish mavjud. Toshkent shahri eng yuqori IFI ko‘rsatkichiga ega bo‘lib (0,59), "o‘rta" moliyaviy inklyuziya toifasiga kiradi. Qolgan 13 ta hudud "past" toifada joylashgan (IFI < 0,3).



1-rasm. Moliyaviy inklyuziya indeksi hududiy tahlili²

Viloyatlar orasida Navoiy viloyati eng yuqori ko‘rsatkichga erishdi (IFI=0,19). Bu natija viloyatdagi yirik sanoat korxonalari (Navoiy kon-metallurgiya kombinati,


¹ Manba: Muallif hisob-kitoblari

² Muallif ishlanmasi [26],[27],[28]

Navoiy issiqlik elektr stansiyasi) mavjudligi va ularning faol bank xizmatlaridan foydalanishi bilan izohlanadi. Navoiy viloyatida kirish o‘lchovi (ACCESS=0,31) boshqa viloyatlarga nisbatan sezilarli yuqori.

Sirdaryo viloyati (IFI=0,16) uchinchi o‘rinni egalladi. Viloyatning nisbatan kichik hududi va aholi sonining ixchamligi bank xizmatlariga geografik yetib borish imkoniyatini osonlashtirgan. Buxoro (0,15) va Xorazm (0,14) viloyatlari o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan ajralib turadi.

Eng past ko‘rsatkichlar Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qayd etildi (har ikkisida IFI=0,08). Bu hududlarda bank infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan – 100 000 aholiga to‘g‘ri keladigan filiallar soni mos ravishda 0,58 va 0,61 ni tashkil etadi, bu respublika o‘rtachasidan (1,06) deyarli ikki baravar past.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi hududlarida moliyaviy inklyuziya kirish(acces) va foydalanish(usage) o‘lchovlari hududiy tahlili¹

Moliyaviy inklyuziya indeksining tarkibiy tahlili muhim qonuniyatlarni aniqlash imkonini berdi (2-rasm). Kirish (ACCESS) va foydalanish (USAGE) o‘lchovlari o‘rtasidagi nisbat hududlar bo‘yicha sezilarli farqlanadi.

Toshkent shahrida kirish o‘lchovi (0,51) foydalanish o‘lchovidan (0,92) past, ya’ni mavjud bank infratuzilmasidan foydalanish samaradorligi yuqori. Bu holat yirik shaharlar uchun xos bo‘lib, aholining moliyaviy savodxonligi va bank xizmatlariga talab yuqoriligini ko‘rsatadi.

Boshqa hududlarda teskari tendensiya kuzatiladi – kirish o‘lchovi foydalanish o‘lchovidan 2–4 baravar yuqori. Masalan, Farg‘ona viloyatida ACCESS=0,19,

¹ Muallif ishlanmasi

USAGE=0,05 (3,8-marta farq); Namangan viloyatida ACCESS=0,14, USAGE=0,04 (3,5-marta farq). Bu natijalar mavjud bank infratuzilmasidan foydalanish samaradorligini oshirish zaxirasi borligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston hududlarini moliyaviy inklyuziya darajasiga ko'ra uchta klasterga ajratish mumkin.

Birinchi klaster – yuqori daraja (IFI > 0,15): Toshkent shahri (0,59), Navoiy viloyati (0,19), Sirdaryo viloyati (0,16). Bu hududlar nisbatan rivojlangan bank infratuzilmasiga ega, moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi yuqori. Toshkent shahri moliyaviy markaz sifatida alohida o'rin tutadi – bu yerda mamlakat moliyaviy resurslarining asosiy qismi to'plangan.

Ikkinchi klaster – o'rta daraja ($0,10 < IFI \leq 0,15$): Buxoro viloyati (0,15), Xorazm viloyati (0,14), Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,13), Jizzax viloyati (0,12), Toshkent viloyati (0,12), Farg'ona viloyati (0,11), Andijon viloyati (0,10). Bu hududlarda bank infratuzilmasi mavjud, ammo foydalanish darajasi past. Potentsial imkoniyatlarni to'liq ro'yobga chiqarish uchun aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish zarur.

Uchinchi klaster – past daraja ($IFI \leq 0,10$): Samarqand viloyati (0,09), Namangan viloyati (0,09), Qashqadaryo viloyati (0,08), Surxondaryo viloyati (0,08). Bu hududlarda aholi zichligi yuqori bo'lishiga qaramay, bank infratuzilmasi yetarli emas. Ustuvor vazifa – bank xizmatlari punktlarini kengaytirish va raqamli moliyaviy xizmatlarni joriy etish.

Xorazm viloyati moliyaviy inklyuziya indeksi bo'yicha 14 ta hudud orasida 5-o'rinni egalladi (IFI=0,14). Viloyatning kirish o'lchovi (ACCESS=0,21) foydalanish o'lchovidan (USAGE=0,08) 2,6 baravar yuqori – bu mavjud bank infratuzilmasidan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyati borligini ko'rsatadi.

Viloyatda 15 ta bank filiali va 451 ta bankomat faoliyat yuritmoqda (2025-yil ma'lumotlari). 100 000 aholiga to'g'ri keladigan filiallar soni 0,74 ni, bankomatlar soni esa 22,19 ni tashkil etadi. Kredit hajmi aholi boshiga 11,76 mln so'm, depozit hajmi esa 5,10 mln so'mni tashkil etadi.

Xorazm viloyatida moliyaviy inklyuziyani oshirish salohiyati mavjud. Viloyatning turistik potentsiali (Xiva shahri UNESCO ro'yxatida), qishloq xo'jaligi rivojlanganligi va chegara do'st savdo imkoniyatlari bank xizmatlariga talabni oshirishi mumkin. Raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va fermer xo'jaliklarini kreditlashni rag'batlantirish ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, O'zbekiston hududlari o'rtasida moliyaviy inklyuziya darajasi bo'yicha 7 barobar farq mavjud (Toshkent shahri IFI=0,59, Surxondaryo/Qashqadaryo IFI=0,08). Bu hududiy moliyaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni aks ettiradi va maqsadli choralar ko'rilishini taqozo etadi.

Ikkinchidan, ko'plab hududlarda bank infratuzilmasi (kirish o'lchovi) foydalanish darajasidan sezilarli yuqori. Bu mavjud resurslardan samarali

foydalanilmayotganligini, aholi moliyaviy savodxonligi va bank xizmatlariga ishonch darajasini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, sanoat rivojlangan hududlar (Navoiy, Sirdaryo) nisbatan yuqori moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlariga ega. Korporativ bank xizmatlari hajmi ushbu hududlarda umumiy ko'rsatkichlarni oshirishga hissa qo'shmoqda.

To'rtinchidan, Farg'ona vodiysi viloyatlari (Andijon, Namangan, Farg'ona) aholi zichligi eng yuqori hududlar bo'lishiga qaramay, moliyaviy inklyuziya darajasi past. Bu qishloq aholisining bank xizmatlariga cheklangan kirishini ko'rsatadi.

Beshinchidan, raqamli bank xizmatlari (mobil ilovalar, onlayn banking) rivojlanishi jismoniy infratuzilma cheklovlarini bartaraf etish va moliyaviy inklyuziyani oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida hududlar bo'yicha moliyaviy inklyuziya darajasini baholashning ilmiy-uslubiy yondashuvlari bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Birinchi, moliyaviy inklyuziya indeksini hisoblashda ko'p o'lchamli yondashuv qo'llanilishi zarur. Kirish imkoniyati, foydalanish darajasi va xizmatlar sifati o'lchovlarini birlashtirgan kompozit indeks moliyaviy inklyuziya holatini to'liq aks ettiradi. Ikki bosqichli PCA metodologiyasi vazn koeffitsientlarini obyektiv aniqlash va natijalardagi subyektivlikni minimallashtirish imkonini beradi [6].

Ikkinchidan, zamonaviy sharoitda an'anaviy moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlarini raqamli moliyaviy xizmatlar indikatlari bilan to'ldirish muhim ahamiyatga ega. Mobil banking, raqamli to'lovlar va fintex xizmatlarining kengayishi moliyaviy inklyuziya darajasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda [8]. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida raqamli moliyaviy xizmatlar tarqalishi an'anaviy bank infratuzilmasidagi kamchiliklarni qisman qoplash imkonini bermoqda.

Uchinchidan, hududiy moliyaviy inklyuziya tahlilida mahalliy xususiyatlarni inobatga olish zarur. Har bir mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi, infratuzilma holati, aholi demografik tarkibi va moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichlari indeks tarkibiy qismlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, universal metodologiyani mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan indikatorlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir [9].

To'rtinchidan, moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik noxizizlikli xarakterga ega. Raqamli moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri moliyaviy inklyuziya darajasi oshgan sari kuchayadi [15]. Bu xulosa hududiy siyosatni shakllantirishda moliyaviy inklyuziya bosqichma-bosqich rivojlantirilishi zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. O'zbekiston hududlari bo'yicha moliyaviy inklyuziya indeksini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etish. Metodologiya XVF Financial Access Survey va Global Findex ma'lumotlar bazasi standartlariga mos kelishi, milliy statistika tizimi bilan integratsiyalashgan bo'lishi lozim.

2. Hududiy moliyaviy inklyuziya monitoringi tizimini yaratish. Ushbu tizim yillik hisobotlar tayyorlash, viloyatlar o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazish va siyosat samaradorligini baholash imkonini beradi.

3. Raqamli moliyaviy xizmatlar infratuzilmasini qishloq hududlarida kengaytirish. Mobil banking va agent banking tarmoqlarini rivojlantirish orqali moliyaviy xizmatlarga jismoniy kirish imkoniyatidagi hududiy tafovutlarni kamaytirish mumkin.

4. Moliyaviy savodxonlik dasturlarini hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqish. Mahalliy aholi ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirilgan o'quv dasturlari moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini oshirishga yordam beradi.

5. Kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish. Mikrokredit tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kafolat fondlari tizimini rivojlantirish tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy inklyuziya darajasini oshiradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: O'zbekiston viloyatlari bo'yicha moliyaviy inklyuziya indeksini empirik hisoblash, moliyaviy inklyuziya va hududiy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik tahlil qilish, raqamli moliyaviy xizmatlarning hududiy tengsizlikni kamaytirish samaradorligini baholash. Ushbu tadqiqotlar milliy moliyaviy inklyuziya strategiyasini ilmiy asoslarda shakllantirish va amalga oshirish uchun muhim axborot bazasini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank (2025). The Global Findex Database 2025. Washington, DC: World Bank. URL: <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex>

2. Demirgüç-Kunt, A., & Klapper, L. (2012). Measuring Financial Inclusion: The Global Findex Database. World Bank Policy Research Working Paper, No. 6025. URL: <https://www.fdic.gov/system/files/2024-08/measuring-financial-inclusion-the-global-findex-database.pdf>

3. Claessens, S. (2006). Access to Financial Services: A Review of the Issues and Public Policy Objectives. The World Bank Research Observer, 21(2), 207–240. DOI: <https://doi.org/10.1093/wbro/lkl004>

4. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Martinez Peria, M.S. (2007). Reaching Out: Access to and Use of Banking Services Across Countries. Journal of Financial Economics, 85(1), 234–266. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jfineco.2006.07.002>

5. Sarma, M. (2015). Measuring Financial Inclusion. Economics Bulletin, 35(1), 604–611. URL: https://www.icrier.org/pdf/Working_Paper_215.pdf

6. Cámara, N., & Tuesta, D. (2014). Measuring Financial Inclusion: A Multidimensional Index. BBVA Research Working Paper, No. 14/26. URL: https://www.bbvarsearch.com/wp-content/uploads/2014/09/WP14-26_Financial-Inclusion.pdf

7. Demirgüç-Kunt, A., & Klapper, L. (2013). Measuring Financial Inclusion: Explaining Variation in Use of Financial Services Across and Within Countries.

Brookings Papers on Economic Activity, 2013(1), 279–340. DOI: <https://doi.org/10.1353/eca.2013.0002>

8. IMF (2021). Digital Financial Inclusion in Emerging and Developing Economies: A New Index. IMF Working Paper No. 21/90. URL: <https://www.imf.org/en/publications/wp/issues/2021/03/19/digital-financial-inclusion-in-emerging-and-developing-economies-a-new-index-50271>

9. Ambarkhane, D., Shekhar Singh, A., & Venkataramani, B. (2025). A Comprehensive Approach to Measuring Financial Inclusion of Countries Across the World. *Journal of Rural Development*, 43(3), 387–412. DOI: <https://doi.org/10.25175/jrd/2024/v43/i3/149258>

10. Econ3x3 (2024). Measuring Financial Inclusion: A Comparative Analysis of Regional South Africa. URL: <https://www.econ3x3.org/article/measuring-financial-inclusion-comparative-analysis-regional-south-africa>

11. Asian Development Bank (2024). ADB Program to Boost Financial Development and Inclusion in Uzbekistan. Manila: ADB. URL: <https://www.adb.org/news/adb-program-boost-financial-development-and-inclusion-uzbekistan>

12. Cámara, N., & Tuesta, D. (2018). Measuring Financial Inclusion: A Multidimensional Index. *BIS Papers*, No. 47p. URL: <https://www.bis.org/ifc/publ/ifcb47p.pdf>

13. World Bank (2015). How to Measure Financial Inclusion. Washington, DC: World Bank. URL: <https://www.worldbank.org/en/topic/financialinclusion/brief/how-to-measure-financial-inclusion>

14. Principal Financial Group (2024). Global Financial Inclusion Index Methodology. URL: <https://www.principal.com/financial-inclusion/methodology>

15. Bouattour, H., et al. (2025). Digital Financial Inclusion, Environmental Sustainability and Regional Economic Growth in China. *Journal of Economic Structures*. DOI: <https://doi.org/10.1186/s40008-025-00347-4>

16. Alliance for Financial Inclusion (2025). Central Bank of Uzbekistan is New Chair of AFI's ECAPI. URL: <https://www.afi-global.org/news/central-bank-of-uzbekistan-is-new-chair-of-afis-eastern-europe-central-asia-policy-initiative/>

17. Alliance for Financial Inclusion (2021). Financial Inclusion on the Agenda of the Central Bank of Uzbekistan. URL: <https://www.afi-global.org/newsroom/blogs/financial-inclusion-on-the-agenda-of-the-central-bank-of-uzbekistan/>

18. Cevik, S. (2024). Promise (Un)kept? Fintech and Financial Inclusion. IMF Working Paper No. 24/131. DOI: <https://doi.org/10.5089/9798400279195.001.A001>

19. Sethy, S.K. (2024). Measuring Financial Inclusion and Its Purpose: A Cross-Country Impact Assessment. *Asian Economics Letters*, 5(3). DOI: <https://doi.org/10.46557/001c.70299>

20. Tram, T.X.H., Lai, T.D., & Nguyen, T.T.H. (2023). Constructing a Composite Financial Inclusion Index for Developing Economies. *The Quarterly Review of Economics and Finance*, 87, 257–265. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.qref.2021.01.003>

21. Ayayi, A.G., & Dout, H. (2024). The Dynamics of the Financial Inclusion Index for Developing Countries: Lessons Learned. *Journal of Financial Economic Policy*, 16(3), 383–403. DOI: <https://doi.org/10.1108/JFEP-01-2023-0029>
22. Azmeh, C., & Al-Raei, M. (2024). Exploring the Dual Relationship Between Fintech and Financial Inclusion in Developing Countries. *PLOS ONE*. DOI: <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0315174>
23. Asian Development Bank (2018). *Financial Inclusion, Regulation, Literacy, and Education in Central Asia and South Caucasus*. Manila: ADB. URL: <https://www.adb.org/publications/financial-inclusion-regulation-literacy-education-central-asia-and-south-caucasus>
24. IMF (2024). *Financial Access Survey 2024 Highlights: Marking 15 Years*. URL: <https://data.imf.org/-/media/iData/External-Storage/Documents/6283296788924FC692761C4DE4A71BA7/en/FAS-2024-Highlights-Report.pdf>
25. Pesqué-Cela, V., et al. (2021). Defining and Measuring Financial Inclusion: A Systematic Review and Confirmatory Factor Analysis. *Journal of International Development*, 33(2), 316–341. DOI: <https://doi.org/10.1002/jid.3524>
26. Tijorat banklarining filiallari — O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki <https://cbu.uz/uz/credit-organizations/banks/branches/>
27. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
28. Tijorat banklarining jismoniy shaxslar uchun mo‘ljallangan moliyaviy xizmatlari haqidagi axborot portali ma’lumotlari https://bankxizmatlari.uz/uz/atms/filter/bank_uz-is-nbu-or-xb-or-asakabank-or-aab-or-poytaxtbank-or-madadinvestbank-or-ipotekabank-or-uzpsb-or-agrobank-or-qishloqqurilishbank-or-turonbank-or-mkb-or-aloqabank-or-ipakyulibank-or-kapitalbank-or-infinbank-or-universalbank-or-uaeb-or-tengebank-or-trustbank-or-davrbank-or-octobank-or-ofb-or-savdogarbank-or-hamkorbank-or-kdb-or-ziraatbank-or-saderatbank/region_uz-is-35/apply/



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**